Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317120

3 do’kon mavjud. Bu veb-saytlarning 4-ishlov berilish jarayonida, 4-to’lovni xalqaro to’lov tizimidagi plastik kartochkalardan foydalanib amalga oshirish imkonini yaratadi, 12-WM Transfer to’lov tizimidan foydalanadi. Qolgan 7 do’kon naqdsiz to’lovni amalga oshirishni imkonini, yozma shartnoma imzolanganidan so’ng, yaratadi.

Takliflar…

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishda asosiy e’tibor beriladigan yo’nalishlar sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

• Elektron tijorat sohasida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarur. Ilmiy ishlar, maqolalar yozish, maxsuslashtirilgan internet-resurlar yaratish, doimiy forum va konferensiyalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri malakali kadrlar yetishmovchiligini, oldini oladi.

•Telekommunikatsion xizmatlarni ko’rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma’lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.

•O’z-o’zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish

•Elektron tizimi bo’yicha ta’lim tizimini rivojlantirish

•Axborot texnologiyalarining butun O’zbekiston bo’ylab keng tarqalishini ta’minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

•On-line banking tizimini butun respublika bo’ylab samarali joriy qilish. Bu ulgurji va chakana savdo bilan shug’ullanayotgan tadbirkorlar uchun o’z tovar va xizmatlari bilan internet tarmog’i orqali erkin savdo qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga bu bank sohasining boshqa yo’nalishlari bo’yicha ham sezilarli o’zgarishlarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Кобелев, О.А. Электронная коммерция /О.А. Кобелев ; под ред. С.В. Пирогова. – Москва : Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2018.
2. «Экономическое обозрение», 14 ноябрь 2009. «Новая вершина узбекского Интернета», 18-Б.
3. Schueffel P. Taming the Beast: A Scientific Definition of Fintech // Journal of Innovation Management. 2017.
4. Elektron manba: https://www.techtarget.com/searchcio/definition/e-commerce
5. Elektron manba: https://infocom.uz/elektron-tijorat-ozbekiston-iqtisodiyotidamavjud-holat-muammolar-va-istiqbollar/

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SALOHIYATI OMILLARI HAMDA ULARNING O‘ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

Published: 28.03.2024

Cite this article: Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik salohiyati omillari hamda ularning o‘ziga hos xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317120

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti
nomonjonovanargiza7@gmail.com.

Bugungi yangilanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jamiyatda, bozor iqtisodiyotining shakllanishi va taraqqiy etishi, raqobatbardosh iqtisodiyotning samaradorlik darajasi va bozor islohotlarining muvaffaqiyatliligiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri - kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, u bilan bog‘liq muammolarni yechimini topish hamda moliyalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish buyicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat” deb, ta’kidlagan [1]. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olish va ularni asoslashni, sohadagi mavjud muammolarni hal etish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni yanada izchil davom ettirishni talab etadi.

Odatda, biron bir ijtimoiy-iqtisodiy voqea va hodisalarni o‘rganish avvalo uni nazariy jihatdan asoslashdan boshlanadi. Demak, biz eng avvalo iqtisodiyotda “salohiyat” va “tadbirkorlik” tushunchasi qanday mazmunga ega ekanligi haqida bilib olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Salohiyat” atamasi biror subyektda mavjud imkoniyatlar, hamda obyektiv yoki subyektiv shart-sharoitlarga muvofiq faoliyat sohasida o‘zini hali to‘liq namoyon qilmagan yashirin imkoniyatlar birligini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan “tadbirkorlik salohiyati” tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak,tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z imkoniyatlaridan foydalangan holda, ma’lum muddatda va hajmda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ularni iste’molchilarga yetkazib berish qobiliyatini tushunamiz.

Tadbirkorlik – bu doimo o‘z ishining fidoyisi, bilimdoni demakdir. Tadbirkorlik uchun nafaqat dastlabki paytlarda ilm olish va o‘qish zarur, balki tadbirkor bir umr o‘qishi, o‘z ustuda ishlashi va izlanishda bo‘lishi zarur. Tadbirkordan nimalarni bilish va qilish talab etiladi? U, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to‘siqlarni va muammoni hal qilish yo‘llarini hamda

qanday yutuqlarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkor ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish hamda mahsulotni sotish bilan birga, bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan holatlarni baholashni va to‘g‘ri yo‘l tanlashni ham bilishi zarur. Har bir tadbirkor faqat o‘z kuchiga, bilimiga, zakovatiga va salohiyatiga ishonishi, suyanishi lozim. Shu o‘rinda biznes falsafasi – «hamma hamma uchun emas, har kim o‘zi uchun» degan g‘oyani ilgari suradi [2]. Bundan ko‘rinib turibdiki tadbirkorlik faoliyati shaxsiy manfaatlardan boshlanadi.

Tarixan ilgari tadbirkorlik faoliyatining ko‘p jihatlariga oid fikrlar Sharqda shakllanib, tovar-pul munosabatlari dastlab shu yerda rivojlangan va asta-sekin G‘arbga qo‘chib o‘tgan.

Islomning asosiy manbai – “Kur’oni Karim”ga nazar tashlaydigan bo‘lsak,u insonlarni barcha moddiy ne’matlardan, resurslardan (yerdan) unumli, oqilona foydalanishga, tejamkorlikka chorlaydi. Sababi, Islomda mulk tushunchasi, uning mohiyati odamlar qo‘lidagi boylik - bu Allohning boyligi, odamlar esa faqat uning yerdagi boshqaruvchilaridir deb aytiladi [3]. Shu o‘rinda,tadbirkorlik salohiyatiga, Alloh tomonidan bizga in’om etilgan tabiiy boyliklarimizdan unumli foydalangan holda moddiy ne’matlar yaratib, iste’molchilarga yetkazishi deb, ta’rif bersak ham bo‘ladi.

Bugungi kunda ham, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida “salohiyat” tushunchasi bir qancha xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asoslanib, ta’rif va tavsiflanib, iqtisodiy kategoriya sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Jumladan, iqtisodchi olim Yu.I.Sizov va B.L. Federchenkolar tadbirkorlik salohiyati tushunchasiga:-“Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ularni sotish, oqilona va izchil qarorlar qabul qilish, yangiliklarni yaratish hamda qo‘llash, har qanday tavakkalchilikni amalga oshirish uchun resurslarning eng yaxshi kombinatsiyasini topish va ulardan foydalanish imkonini beradigan inson fazilatlari, qobiliyatlari yig‘indisidir” deb, ta’rif bergan [4].

E.A.Fiyaksel, N.G.Shubnyakovalar esa, inson qobiliyatlari bilan bir qatorda tashqi muhit omillarini ham tadbirkorlik salohiyati shakllanishida muhim o‘rin tutadi deya ta’kidlagan holda quyidagicha ta’rif berishadi: “Tadbirkorlik salohiyati shaxslar, tashkilotlar, tarmoqlarning tadbirkorlik madaniyati va institutsional muhit mavjud resurs imkoniyatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq (yangi korxonalar yaratish) qobiliyatlaridan iboratdir”[5].

Milliy iqtisodiyot vakillarimizdan, O.Xatamov va S.Toshaliyevalar esa, shunday ta’rif berganlar:-“Tadbirkorlik salohiyati – iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy, siyosiy-institutsional omillar ta’siri ostida tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida muayyan natijaga erishish yo‘lida foydalanilayotgan ichki va tashqi tadbirkorlik qobiliyatlari, tadbirkorlik imkoniyatlari hamda hali foydalanilmayotgan tadbirkorlik zaxiralari yig‘indisini aks ettiradi” [6].

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda, kichik biznesda tadbirkorlik salohiyatining o‘ziga hos xususiyatlari hamda uni samaradorligi oshishiga ta’sir qiluvchi bir qator omillar mavjud. Bular eng avvalo, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar bilan bog‘liq hisoblanadi. Bular sohani rivojlantirishning eng asosiy omili va ulardan oqilona va samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-institutsional, demografik, tabiiy omillar ham mavjud bo‘lib, ular xududlarda kichik biznesni rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bugungi kunda kichik biznesda tadbirkorlik salohiyatini oshirish uchun o‘z tadbirkorligini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratilyotganligi va tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha chora-tadbirlar tizimli ravishda ishlayotganligi hammamizga ma’lum. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni hohlovchi aholi qatlamini boshlang‘ich mablag‘ bilan ta’minlanib, ularning ushbu sohadagi boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maxsus o‘quv kurslari tashkil etilmoqda hamda ularni boshqarish, marketing, buxgalteriya hisobi, soliq va soliqqa tortishga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirib borilishi, tadbirkorlik salohiyatini oshishiga xizmat qilmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tadbirkorlik faoliyatining boshida shaxsiy manfaat turadi va u keyinchalik daromat topish va foyda olish orqali boshqalarga ham naf keltiradi. Kimda moddiy imkoniyat, tajriba va tadbirkorlik salohiyati kuchli bo‘lsa, u rivojlanib boraveradi.

Ushbu fikr va mulohazalarni hamda bugungi kunda tadbirkorlik salohiyatining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rgangan holda quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin: - mamlakatimizda tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish maqsadida – iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy, siyosiy-institutsional omillarni xududiy jihatdan o‘rganish hamda ulardan oqilona foydalanish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- kichik biznesda iqtisodiy erkinlikni yanada takomillashtirish va bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini jadallashtirish;
- kichik va o‘rta biznesni yangicha moliyaviy instrumentlar bilan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish va.x.k.

Bu esa o‘z navbatidan mamlakatimizda kichik biznes sohasidagi tadbirkorlarni ham moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga, shu bilan birga ularning tadbirkorlik salohiyatini oshirishga hamda iqtisodiy samaradorligini o‘sishiga olib keladi. Buning natijasida yana yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ishsizlik darajasi pasayadi, mamlakat aholisining daromadlilik darajasi ortadi, turmush darajasi yanada yaxshilanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // «Xalqso‘zi», 15 dekabr 2016 yil.

2. Iminov T,Bo‘taboyev M,Qodirov A “Biznes boshqaruvi asoslari” F., 2017 yil. -105-bet.

3. A.Abdullayev, Sh.A.Mamatqulov, X.A.Aybeshov “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rivojlantirish, boshqarish”. Andijon-2019 yil.

4. Yu. I. Sizov, V. L. Fedorchenko i dr. Предпринимателство: энциклопедический словар. Волгоград: Издател, 2008. – 264 с

5. E.A.Fiyaksel, N.G.Shubnyakovaidr. Evolyutsiya ponyatiya predprinimatelskiy potensial. Jurnal Innovatsii № 9(215),2016. -48 s.

6. Xatamov O.Q, Toshaliyeva S.T. “Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlili” maqolasi “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnli, № 4, iyul-avgust, 2021 yil.

ROLE OF BUDGET-TAX POLICY IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
Teacher of Andijan Faculty of Tashkent Financial Institute

Abstract

This article presents an analysis of the literature on the role of the budget and tax policy in ensuring sustainable economic growth and the factors influencing the improvement of the quality of life of the population and the aspects of economic growth.

In particular, the conclusions obtained as a result of research on the aspects of economic growth and improving the quality of life of the population are presented.

Currently, the development of economic development requires a deep study of the theoretical and economic content of this field, the factors affecting it, since the effective use of the natural and economic potential and opportunities of the regions is the main means of economic growth in the country. Economically stable growth determines the path of development of society, its level of development. Economic growth is primarily expressed in the growth and change in the amount of goods and services. In a broad sense, as a result of economic growth in society, reproduction increases, productive forces develop. Most importantly, the population's quality of life will materially improve and their well-being will increase.

Also, proper and reliable provision and management of the budget-tax policy in ensuring sustainable economic growth is considered one of the urgent problems of today.

Many economists in this field have conducted scientific and practical research on economic growth and put it into practice.